


# **NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI**

## **NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-IYUN (DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 69-211-72-00  
[www.namstat.uz](http://www.namstat.uz)**


## Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024- yil yanvar-iyun oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 12 584,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 109,8 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.




## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqarish sanoati 112,2 % ga, elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatining 103,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-iyun oylarida



2024- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 10 303,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 81,9 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,1 % ni (2023- yilning yanvar-iyun oylarida – 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 7,6 % (8,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,1 % (14,5 %) va quyi texnologiyalisi – 76,2 % (75,4 %) ni tashkil etdi.



## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,8 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,2 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 3,9 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 186,7 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 0,9 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 78,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 4,0 % (2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,7 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



## 2024- yil yanvar-iyun oylarida



2024-yilning yanvar-iyun oylari davomida jami sanoatda 18,2 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 23,2 % ga kamaygan), 12,6 ming tonna paxta tolasi (40,0 % ko'paygan), 7,9 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (35,8 % ga kamaygan) hamda 19,6 ming tonna paxta chigiti (20,2 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	12,3	7,9	-4,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	23,7	18,2	-5,5
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	12,6	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	4,0	6,3	2,3

## 2024- yil yanvar-iyun oylarida


### Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 68,2 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 2,8 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 53,0 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 352,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 523,0 mlrd.so'mni yoki jami sanoat hajmining 5,6 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 594,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 455,9 mlrd. so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1 871,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 415,2 mlrd.so'mga ortgan.



## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

### Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyun oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 311,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 550,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 238,2 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-iyun oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 107,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 106,3 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 918,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 11,3 % ni, ya'ni jami 1 057,3 mlrd. so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 13,0 % ni tashkil etib, 1 642,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 588,3 mlrd. so'mga oshgan.





## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 335,9 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida Namangan viloyati bo'yicha 230,3 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, tashkil etdi.



### Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,9 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 1,8 mlrd. so'mga ko'payib, 8,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 2,2 % ni, yani 202,4 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 66,9 mlrd. so'mga ko'paygan va 269,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

### Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 116,4 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 16,8 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 698,6 mlrd.so'mga ko'payganligi kuzatildi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 328,9	3 137,1	-191,8
Issqlik energiyasi, ming gkal	32,1	63,9	31,8

## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 123,4 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun	2024- yil yanvar-iyun	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	49,9	68,8	18,9
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	18,6	30,9	12,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 8,9 mlrd. so'm yoki 37,9 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaliklarining qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 12,3 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.


### Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 35,3 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 21,3 % ni, Chust tumani 7,9 %ni, Namangan tumani 6,8 % tashkil etdi.


#### Namangan viloyati



#### yanvar-iyun o'sish sur'ati



#### Namangan sh.




## 2024- yil yanvar-iyun oylarida

### Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (10 872,8 ming so'm), Namangan shahrida (6 351,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

#### Namangan viloyati



o'sish sur'ati  
ming. so'm

#### Namangan viloyati



#### yanvar-iyun o'sish sur'ati




## 2024-yil yanvar-iyun oylarida


### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 5 849,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,5 % ni tashkil etdi.

#### Namangan viloyati



#### yanvar-iyun ulushi % da.



Rayon	Ulushi (%)	Hajmi (mlrd. so'm)
Namangan sh.	60,6	2 695,8
Mingbuloq	25,6	143,4
Kosonsoy	45,6	376,4
Namangan	77,0	654,6
Norin	99,9	290,3
Pop	91,7	293,0
To'raqo'rg'on	7,7	206,5
Uychi	69,7	490,9
Uchqo'rg'on	32,5	131,8
Chortoq	42,6	132,2
Chust	24,3	242,3
Yangiqo'rg'on	100,0	191,9

●●●●●●●● *jamidagi ulushi*     
 ●●●●●●●● *mlrd. so'm*


### Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 512 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 603 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 35,5 % i) Namangan shahriga, 360 tasi (8,0 %) Kosonsoy tumaniga, 359 tasi (8,0 %) Namangan tumaniga, 334 tasi (7,4 %) Chust tumaniga, 316 tasi (7,0 %) To'raqo'rg'on tumaniga, 291 tasi (6,4 %) Uychi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

#### Jami yangi tashkil etilgan



#### Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan      faoliyat yuritayotgan

●●●●●●●●      ●●●●●●●●

## 2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2 005,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 15,9 % ni tashkil etdi.


### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.

2023-yil yanvar-iyun

2024-yil yanvar-iyun



### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-iyun)





## 2024- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra

### Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 130 ta loyiha bo'yicha 900,6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 13,2 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida 759 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 77,8 % ga ko'payganligi kuzatildi..